

“YANGI O‘ZBEKISTON”

G.To‘lqinboyeva¹

Jahon tillar fakulteti talabasi

M.Xoshimova²

Jahon tillar fakulteti talabasi

¹⁻²Namangan Davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6993698>

Annotatsiya.Ushbu maqolada mamlakatimizning hozirgi ko‘rinishi ya‘ni Yangi O‘zbekistonda bo‘layotgan o‘zgarishlarni ko‘rsatishdan iborat.

Annotation.This article shows the current state of our country, the changes taking place in New Uzbekistan.

Kalit so‘zlar:Mustaqillik, O‘zbekiston,yoshlar, ilm-fan, istedod, renesans, Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson,avvalo,o‘zini o‘zgartirishi lozim.Buning uchun esa,aniq maqsad,tolmas iroda va doimiy izlanish kerak”,degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo‘lishi zarur[1].

Jondan aziz diyorimiz 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zining bor kuch g‘ayrati bilan Vatanimizni rivojiga va uni yanada taraqqiy ettirishga bel bog‘ladi. Mamlakatimmizda birin-ketin qurulish ishlari, sanoat ma‘daniyat, sport kabi barcha jabxalarda imkoniyatlarimmiz yanada oshdi. Yildan-yilga yangi-yangi islohotlar olib borilyabdi shu jumladan mamlakatimmiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangilanayotgan O‘zbekistonda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida belgilangan eng muxim sohalarga qaratilgan. Mazkur hujjat Davlat va jamiyat qurulishini takominlashtirish qonun ustuvorligini taminlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish ijtimoiy sohani rivojlantirish, havfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni taminlash chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy ruxdagi tashqi siyosat yurutish kabi ustuvor yo‘nalishlarni kuchaytirdi. O‘zbekiston azal-azaldan Markaziy Osiyoda muxim davlat xisoblanadi va alohida axamiyatga ega Mamlakatning viloyatlardagi muxim axamiyati xorijiy ekspert va siyosiy doiralar vakillari tomonidan e‘tirof qilinadi. Davlatimmiz mintaqadagi barcha qo‘shni davlatlar bilan strategik hamkorlik to‘g‘risida shartnoma tuzgan bo‘lib bu yuqori darajadagi hududiy siyosat tuzish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatni xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va ro‘lini mustahkamlashda ham muxim axamiyatga ega. O‘zbekiston tashabbuslari barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga oladi va konsensus tamoyiliga asoslanadi. O‘zbekiston mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni va o‘zaro

foydali hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Yurtimiz hozirgi tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan vazifalar doirasida bo'lib xalqaro maydonda aloqalarni kengaytirishga yangi-yangi yondashuv ishlab chiqish bo'yicha amaliy qadamlarda o'z aksini topmoqda. Shu munosabat bilan Turkiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Afg'oniston, Qozog'iston kabi dunyo mamlakatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqilgan "yo'l xaritalari" ishlangan. Milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ochiq pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosiy yo'nalishni rivojlantirish bo'uicha keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tasqqari yangi o'zbekistonni yaratishda yoshlarga yangidan-yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida o'zbekiston respublikasi prezidenti tashabbusi bilan 2016-2021-yillarda yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Shu qonun ijrosi doirasida respublikamiz doirasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda Birgina misol o'z viloyatimizda yoshlarni fan san'atga qiziqishini oshirish ularni bandligini taminlash maqsadida qulay sharoitlar, konkurslar, musobaqalar, kitobxonlik tanlovlari har bir yosh o'z istedodini namoyish qila olishi uchun ajoyib imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek sportni rivojlantirishga ham katta e'tibor berilgan xususan futbol, voleybol, boks, kurash maydonlari va ringlarni barpo etilgan hamda tamirlangan suzish havzalari qurilgan. Bunday imkoniyatlarga barcha yosh avlod yurtimiz bayrog'ini jahon arenalarida hilpiratib o'z hissalarini qo'shib kelishyapti. Yurtboshimizning yangi O'zbekistonni albatta yoshlar bilan birga quramiz axir yurtimiz baxtiga yoshlar mamlakati deya takidlagan edi o'z nutqlarida. Bu kabi so'zlardan biz yoshlar o'z zimmamizga ulkan kuch g'ayrat, e'tibor, masuliyat olamiz va ertangi yaratilayotgan o'zbekistonga o'zining buyuk maqsadlari bilan hissa qo'shamiz. Bizga ma'lumkin Islomda ayolni qiymati oltin kabidir, oltin esa doim himoyaga muxtoj Yurtimizda gendirtengligini o'rnatish va ayollarni qo'llab quvvatlash borasida yangi va samarali tizim yaratildi. Ushbu qaror 2021-yil 28-aprelda qabul qilingan bo'lib uning ijrosi doirasida "ayollar daftari" "temir daftar" kabi hujjatlar ishga tushurildi.

Bundan tashqari iqtidorli talaba qizlar uchun imtiyozli kreditlar davlat stipendiyalari, grant asosidagi magistratura yo'nalishlari joriy qilindi. Har bir fuqaro bizning yangi rovojlangan yurtimiz uchun o'zining yaratuvchi mustaqil g'oyalari yutuqlari bilan hissa qo'shmoq'I kerak. Keling qo'lni qo'lga berib bu jannatmakon go'shani barpo etishdagi yo'ldagi ulkan orzu, umidlar, katta rejalar

bilan qalbi qaynoq mehri jo'shqin biz yoshlar asosiy tayanch va suyanch bo'lamiz zero o'lkammiz o'tsada fozil odamlar shaxri deya tillarda qolsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O'zbekiston. NMIU, 2016, 56 bet
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., "O'zbekiston", 1992
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993. – 224 b.
5. Lex.uz.